

KIYINISH MADANIYATI KISHINING "TASHRIF QOG'ÖZI" DIR



2022 yil 8 aprelda QXM fakultetida Xotin-qizlar kengashi raisi N.Xoliqova boshchiligidagi "Kiynish madaniyati kishining tashrif qog'ozidir" mavzusida fakultet ayol o'qituvchi va xodimlari bilan birgalikda yig'ilish o'tkazildi.

Yig'ilishning asosiy maqsadi "Oliy ta'lim muassasasining odob-axloq qoidalari" bo'yicha suhbat o'tkazish. Bugungi shiddatli davr yosh avlodga zamonaviy ta'lim berish bilan birga ta'lim dargohlarida kiynish madaniyatiga ham katta e'tibor berish talab qilinmoqda. Insonning kiyagan kiyimi atrofdagilarda u haqidagi ilk taassurotni paydo qiladi. Kiyim inson ma'naviy dunyosining bir qismi. Undagi har bir element aslida o'zimiz to'g'rimizda so'zlaydi. O'qituvchining kiynish madaniyati o'ziga xos bo'lishi, ya'ni sodda, ozoda, bejirim kiynishi, ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim oluvchilarning diqqatini tortmasligi lozim.



To'g'ri, zamon bilan hamnafas yashash lozim, lekin, nufuzli oliy ta'lim dargohining o'qituvchisi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar, odob-axloq qoidasiga binoan kiynishi va belgilab qo'yilgan tartibga rioxalishi lozimligi haqida davra suhbat o'tkazildi.